

Shahlo MUHAMMADIYEVA,

O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey bosh o'qituvchisi

E-mail : mshahlo_87@yahoo.com

Tel : (99)9457190

Amaliy fanlar universiteti Xorijiy tillar kafedrasi mudiri, PhD dotsenti X.Boymonov taqrizi asosida

THE REPRESENTATION OF THE IMAGE OF A WOMAN AND A MAN IN THE ENGLISH AND UZBEK PICTURE OF THE WORLD

Annotation

The article outlines the initial image of man and woman in fiction texts in Uzbek and English languages. In this article the texts in Uzbek and English literature are analyzed according to the ideal gender peculiarities of main characters. It compares different styles used in two different language perspectives giving them the exact reasons to be the ideal image throughout the piece of art. The article compares the ways of expressing the worldview of the main characters in the past and contemporary literature and gives social and psychological reasons as an extralinguistic factors effecting to them.

Key words: Gender peculiarity, feminism, muscularity, ideal image, social interaction, bravery, national identity.

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ МУЖЧИНЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА

Аннотация

В статье обозначены исходные образы мужчины и женщины в художественных текстах на узбекском и английском языках. В данной статье анализируются тексты в узбекской и английской литературе с учетом гендерных особенностей главных героев. Статья сравнивает разные стили, используемые в двух разных языках, с точки зрения того, почему они являются идеальным изображением во всем произведении искусства. В статье сравниваются способы выражения мировоззрения главных героев в литературе прошлого и современной литературы, а также приводятся социальные и психологические причины как экстралингвистические факторы воздействующие на них.

Ключевые слова: Гендерные особенности, феминизм, мускулиность, идеальной образ, социальное взаимодействие, храбрость, национальная идентичность.

INGLIZ VA O'ZBEK DUNYO TASVIRIDA ERKAK VA AYOL OBRAZLARINING IFODASI

Annotatsiya

Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy matnlarda erkak va ayolning dastlabki qiyofasi tasvirlangan. Maqolada ideal o'zbek va ingliz badiiy matnlaridagi bosh qahramonlarning ideal gender xususiyatlari tahlil qilingan. Maqola ikki til imkoniyatlaridan kelib butun asar davomida ideallik sabalarini sanab o'tadi. Maqolada shuningdek o'tmish va zamonaviy adabiyotda bosh qahramonlarning dunyoqarashini ifodalash usullari taqqoslanadi va ularga ta'sir qiluvchi ekstralingvistik omillar sifatida ijtimoiy va psixologik sabalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Genderlik xususiyatlari, feminizm, baquvvatlik, ideal obraz, ijtimoiy aloqa, jasorat, milliy o'zlik

Kirish. Ingliz va o'zbek adabiyotining ming asrlik rivojlanish tarixida erkak va ayol obrazlari orqali jamiyat turmush tarzi, undagi muammolar, tarixiy voqealarning tub negizini asoslab berishda asosiy qurol vazisini bajarib kelgan. Bu ikki, ko'p holatlarda bir biriga zid bo'lgan obrazlar yozuvchining asl maqsadini yaqqol ifodalashda qo'l kelgan. Qadimdan ma'lumki erkak so'zi ingliz tilida "man" so'zi umumiy holda qo'llanilgan.

"What a poor man you are?" ya'ni "qanchalik senga qiyin" ma'nosida birdek ayol va erkak uchun qo'llanilgan.

O'z asarida I.S. Kon "o'g'il bola" soziga etimologik ta'rif beradi. Shunda 3 jihatni ko'rsatib o'tgan:

Yosh jihatdan – etuk emas

Holati jihatdan- mustaqil bo'lmagan

Jinsi jihatdan- qiz emas

Yunon tilida pais so'zi (chaqaloq yoki o'g'il bola, ko'plik shakli paides) faqatgina yoshni nazda tutmasdan, jamiyatdagi o'rnini ham anglatgan. Ingliz tilidagi boy so'zi aslida 1154 yil qayd qilingan bo'lib boie xizmatkor ma'nosida ishlatilgan. I.S. Kon o'zining "Мальчик – отец мужчины" asarida o'g'il bolalarga juda katta bosim ularni jasur, mard, o'ziga ishongan, ahdl bo'lib shakllanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, qizlarga bosiq, itoatkor, g'amxo'r bo'lib voyaga yetgan.

Erkak obrazi adabiyot yaralibdiki u aqilli, doim oilasi, yurti uchun jonini berguvchi, uzoqni ko'rabiladigan, mehribon ota qiyofasida ko'z oldimizda gavdalanadi

Ayol obraziga keladigan bo'lsak birinchi urinish albatta afsonaviy yunon shoiri Gomerning "Iliada" va "Odessey" poemalarida uchraydi. Shu davrdan olib qaraydigan bo'lsak Gomer ideal ayol obrazini tasvirlaydi. Ya'ni "Iliada" asarida u bosh qahramonni eri uchun qayg'uradigan ideal ayol obrazida tasvirlaydi. Garchi uning taqdiri fojeali bo'lib yakun topsada shoir shu fojea orqali ayolning e'tirofini ochib beradi.

Manbalardan shuni biz aniq aytalimizki har qanday tilda yozilgan asarda erkak va ayol obrazlari turli qiyofalar, bir biridan farqli dunyoqarashlarda o'z aksini topgan. Misol tariqasida o'zbek xalq ijodi durdonalaridan bo'lmish "Alpomish" dostonida Alpomish jasorat, metin iroda, yurtga sadoqat va mardlik kabi hislatlar bilan boyitilgan bo'lsa, Barchin obrazi avvalo vafo, fidoyilik va mehribon ona kabi yuksak fazilatlarini o'z ichiga olgan.

Ayollarning badiiy tasviri shundan keyingi Yevropada yozilgan ko'plab asarlarga ilk debocha bo'lib xizmat qildi. Ayol obrazini tasvirlashga yondashish keyinchalik diniy tarafdin ko'proq e'tibor qaratilgan. Aligyeri Dante o'zining "Ilohiy Komediya" bunga misol bo'la oladi. Bu asarning bosh qahramoni Biatriche shoir tomonidan yuqori e'tirof etiladi. G'oya asta sekinlik bilan ayollarning jamiyatdagi o'rni, ikki jins vakillarining ajralib turadigan vazifalarini ochib beruvchi asarlarda rivojlanib boradi.

XVIII asrga kelib fransuz faylasufi, ma'rifatparvari, yozuvchisi va bastakori Jan-Jak Russo o'zining "Yulia, ya'ni Yangi Eloiza" (1761) va "Emil, ya'ni Tarbiya haqida" (1762) asarlarida falsafiy qarashlari bilan ikki jins vakillarining bir birdan ajralib turuvchi tomonlari va vazifalarini yoritib o'tgan. Ayniqsa ideal ayolni Russo faqat uy yumushlari uchun tarbiyalangan bo'lishi kerakligini aniq ta'kidlab o'tgan.

XIX asrga kelib ayollar tomonidan feministik ruhdagi asarlar ko'plab yozila boshlandi. Bu ayniqsa fransuz ayol yozuvchisi va jurnalisti Jorj Sand taxallusi ostida tanilgan Amantine Lucile Aurore Dupinning "Indiana", "Valentina", "Leliya" asarlarida feminizm tushunchasi paydo bo'ldi. Jorj Sandning "Indiana" romanidagi Indiana ayol obrazi orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tengsizlik, ayollarning erkinligi muammosi talqin qilingan.

Shu jumladan aytish kerakki Markaziy Osiyo antik dunyo bilan ko'p asrlar davomida madaniy-adabiy aloqada bo'lib kelganligi tarixiy ilmiy manbalardan ma'lum. Ellinizm madaniyati yurtimiz madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. "Biz hozirgi zamonda yurtimizning ming-ming yillik tarixini, tamomila yo'qolib ketgan ba'zi bir adabiy asarlarimiz ("To'maris", "Shiroq", "Zarina va Striangiya", "Zariadr va Odatida" dostonlari) izlarini antik zamonda o'tgan Yunon – Rim tarixchilari (Gerodot, Polien, Diodor, Xares) asarlarida topib olamiz"[1], -deb yozadi o'zbek adabiyotshunos olimi N.M.Mallayev.

Xuddi o'zbek adabiyotida bo'lganidek ingliz adabiyotida ham obrazlar ikki davr oralig'ida turlicha tasvirlangan. Misol uchun, aynan o'zbek ayoli –mehribon ona, vafoli umr yo'ldosh timsollari vositasida tasvirlangan bo'lsa, zamonaviy adabiyotimizda ayol obrazi erkaklar bilan bir qatorda turib mexnat qilayotgan, oila boquvchi, o'qimishli obraz sifatida gavlantiriladi. Bu esa ayolning jamiyatdagi o'rning oshishi va shu bilan birga adabiyotga bo'lgan ta'sirini ham ko'rsatadi.

Manbalarni tahlil qilarkanmiz, ingliz adabiyotida ham ayol obrazlarining tasviri o'zgarib borganligiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda U. Skotning "Ayvengo" romanidagi bosh qahramon Rovena yozuvchi tomonidan halimlik, bo'ysunuvchanlik hislatlarini o'zida jamlagan holda ideallashtirilgan. Lekin Tekkereyning "Vanity Fair" romanida ayol obrazi, Rebekka, ayol timsoliga bo'lgan qarashni o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Kun botar tovuqlar chiqar qo'ndoqqa,
Oqshom pari qizday silkitar ro'mol.
Bir etak bolasin jamlab quchoqda,
Qozonga o't yoqar tabarruk ayol
O'zbek she'riyatida ayol obrazini yetuk darajada tasvirlagan Oydin Hojiyeva.
Ro'zg'or g'or deydilar. Shu tubsiz g'orda
Ravshan bir chiroqday yurasan beg'am,
Shu g'orni butlagil deb biru borda,
Joningni qirq bitta yaratmish Egam[2]

Shoiraning "Mustaqil Vatanni baxt nuri chaysin" ushbu she'rida ozbek ayoliga har tomonlama mukammal tarzda tasvir berilgan.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotimizning nasr janrida esa Ulug'bek Xamdanning "Ota" romani dunyodagi barcha otalarning yaqqol namunasi sifatida Po'lat obrazida gavdalanadi. Romandagi bosh qahramonning ismi ramziy ma'noda Po'lat bo'lib, u jangu jadallar o'lim og'zidan tirik qaytib kelgan navqiron yigit. Hayotning farzandsizlik kabi ko'p sinovlariga turabilgan umr yo'ldosh, o'z qizining aldoviga naqd qaddi bukkildi. Asar har qanday ota o'z qizining nomusini har qanday narsadan ustun quyishi asarning tub mohiyatini tashkil etadi. Bu asarda Po'latning seviklisi Yog'du asar boshida ideal ayol obrazi sifatida gavdalanib keladi. Chunki u Po'latni urushdan qaytishini yillar davomida kutadi. Unga xiyonat qilmaydi. Lekin taqdir ularni diydor bilan siylasada farzandan qisdi. Shu damlarda ham ular yengilmadi. Bir birini sira tark etishmadi va Sevinch dunyoga keldi. Asarda bir biriga xarakter jihatdan zid bo'lgan obrazlar bir birlarini to'ldirgan. Masalan, Po'lat bilan Erboyl, O'tkir aka Oychechak opa, Sevinch va Yog'du. Erkak va ayolning ideal taraflarini aynan shu zid obrazlar ochib berishga xizmat qiladi aslida. Misol uchun, ingliz adabiyotidan Jeyn Ostinning "G'urur va andisha" asarida Missis Bennet juda o'ylamay gapiradigan obraz sifatida keltirilib aslida Mister Bennetning qanchalik mushoxada bilan aqilli qaror chiqaradigan ideal ota obrazida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Garchi adabiyot yaralibdiki erkak obrazi uning barcha shakllarida dominant obraz bo'lib hisoblansada, ayol obrazi ingliz va o'zbek adabiyotining deyarli barcha asarlarining markaziy nuqtasi bo'lib sanaladi. XVIII-XIX asr ingliz adabiyotida Shekspir ijodidan "Gamlet", "Shox Edip", "Qirol Lir" asarlarida ideal erkak va ayol obrazlariga murojaat qilgan bulsa, mavzu Jeyn Eyning "Andisha va G'urur" va Charlotta Brontening "Jeyn Eyr" asarlarining o'sha davr muammolari qamrovida qolgan qahramonlariga ko'chadi. O'zbek adabiyotida esa Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlaridagi bosh obrazlar orqali milliy g'urur, andisha kabi hislatlar ifodalangan bo'lsa, xozirgi davr adabiyotida Ulug'bek Xamdanning "Ota" romanida g'ururli ota, umr yo'ldosh va farzand obrazlari va shoira Oydin Xojiyevaning ayol deb nomlanmish sirli hilqat ostida yashiringan ideal ona, umr yo'ldosh kabi siymolarning achchiq va shu o'rinda shirin taqdiri she'rlarida yorqin ochib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XVIII-XX asr ingliz va o'zbek adabiyotidagi obrazlar hamda xozirgi davr adabiyotidagi bosh qahramonlarning farqli va o'xshash jihatlari ilmiy qiyoslash-tahlil uslubi, adabiy –tadqiqot uslubi, lingvistik va ekstralingvistik tushunchalar uslubi asosida amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Ingliz va o'zbek badiiy matnlarini turli davrlarda ko'zdan kechirar ekanmiz, yozuvchi o'zining asar qahramonlarining nutqi, duch kelayotgan muammolari orqali o'sha davrda jamiyatni qiynab kelayotgan qiyinchiliklarni, ommani qiynab keyayotgan muammolarni ochib berishga urinadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, qahramonlarning nutqi lingvistik tomondan tahlil qilinganda ingliz va o'zbek til madaniyatida erkak va ayol obrazlarining shakllanishiga ekstralingvisik omillar ta'sir etishi kuzatildi. Shuningdek, bu ikki tilda har ikkala jins vakillarining so'z larni qo'llash jarayoni turlicha ekanligi aniqlandi. Bu kabi farqli tomonlar ingliz va o'zbek tili frazeologiyasini ham sezilarli ravishda emotsional buyoqdorlik jihatdan boyitishga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

1. Н.М.Маллаев . Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент, 1963, 41- бет
2. Hojiyeva Oydin. Nazokat.She'rlar, doston,qasidalar,badia,o'ylar.- T .. "Sharq", 2010. 156-bet
3. Eshmatova Y.B. Istiqloq davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Fil.fan.nomz...diss.- Toshkent, 2020.-167 b
4. И. С. Кон. "Мальчик-отец мужчины" Время 2017
5. Christopher Dummitt, M. A., Dalhousie University 1997 "Modern Men : Taking risks and making masculinity in the post war years"
6. Хабибуллина Л. Ф. Женский национальный тип в английской литературе XIX века //Вестник Челябинского государственного педагогического университета, 11-1,2009.- С. 292-299

7. Kodirova G. The comparison of Women image in Russian and English Luterature.2021// International Journal on Orange Technologies, Volume 03, Issue 06, June 2021,p. 97-99. URL: - www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT e-ISSN: 2615-8140/p-ISSN: 2615-7071
8. Конрад Н.И. К вопросу о литературных связях // Запад и восток . – М., 1966. С. 43-52
9. Tanner, T. Jane Austen , Houndmills , Basingstork , Hampshire and London : Macmillan Press Ltd., 1986 . -291 p.
10. Waldron M. Jane Austen and the fiction of her time Cambridge : Cambridge University Press 1999. – 320 p.
11. Shermurotov T. Mangu onaizor talqini. Yetuklik jozibasi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.-144 b
12. Sattarova G.Y. Bugungi hikoyalarda ayol obrazi talqini // Scientific work (international scientific journal) . -2020.- No. 08/57.- P. 29-32 DOI: 10.36719/ AEM/2007-2020/57/29-32